I.X.Qutlimuratov
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
p.f.b.f.d (PhD), dotsent
E-mail: kutlimuratov@gmail.com

FUTBOL SPORT TURI BILAN SHUG‘ULLANUVCHILARNING TASHKILIY-METODIK ASOSLARINI O‘RGANISH HISOBIGA HAKAMLIK MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.13844240

Annotatsiya. Maqolada futbol sprot turi bo‘yicha saralab olish ishlari, bu borada olib borilayotgan tadqiqotlar, tashkiliy metodik asoslarining eng muhim bo‘lgan jihatlari malakali mutaxassislar fikriga asosan o‘rganilgan. Ko‘p yillik tayyorgarlik tizimida hakamlik faoliyatiga e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan tomonlari solishtirilib, dolzarbligi va afzalliklari ochib berilgan. Ilgari surilayotgan nuqtai nazarning ilmiy asoslari keltirilgan va amaliyotga tadbiq etilishiga xulosalari berilgan.

Kalit so‘zlar: tayyorgarlik bosqichlari, tayyorgarlik turlari, saralashni rejalashtirish, modellashtrish, asosiy bo‘g‘in

Dolzarbligi. Dunyoda sport o‘z taraqqiyotida shunday cho‘qqilarni zabt etganki, ko‘rsatilgan natijalarni xolisona baholash va to‘g‘ri qayd etish yoki bir sportchining boshqasidan ustunligini aniqlash tobora qiyinlashib bormoqda. Bu holat zamonaviy sportga (ayniqsa, yuqori natijalar sportiga) yetarlicha rivojlangan hakamlik institutiga muhtojligidan dalolat beradi. Hakamlik qilish yildan-yilga qiyinlashib bormoqda. Hakamlikning obyektiv qiyinchiliklari ko'p jihatdan hakamlarning mutlaqo xolis va xatosiz qarorlar qabul qilishi kutilayotgan harakat holatlarining yuqori dinamikligi, qisqaligi va tez o‘zgarishi, shuningdek, futbol paytida hakamlar bajarishi kerak bo‘lgan yuqori jismoniy yuklar bilan bog‘liq. Futbol, psixologik keskinlik va qabul qilingan qarorlar uchun javobgarlik. Biroq, hakamlikda, boshqa har qanday faoliyatda bo‘lgani kabi, hakamlarning malakasi yetarli emasligi, hakamlik falsafasi va mexanikasini tushunishda birlikning yo‘qligi bilan bog'liq turli xil xatolar bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, tomoshabinlar tomonidan hakamlarga nisbatan tanqidiy munosabat, ommaviy axborot vositalarida, rasmiylar va albatta jamoa sportchilari tomonidan hakamlarning noto‘g‘ri baholari hisobga olinishi kerak.

Respublikamizda yillik tayyorgarlik siklining turli bosqichlarida hakamlarning jismoniy tayyorgarligini doimiy nazorat qilish va muammoli jihatlarni tezkor bartarf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar yetarlicha ishlab chiqilmagan. Mamlakatimizda futbol hakamlarini tayyorlash, hakamlik sifatini yaxshilashga oid qator ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur sohani yanada takomilashtirish bo‘yicha, jumladan hakamlarning maydondagi harakat samaradorligini ta’minlash maqsadida ichki birinchilik uchrashuvlarida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash amalga oshirildi». Ushbu zaruriyat asosida hakamlarning maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasini yuqori saviyada ta’minlagan holda amalga oshirilishi muhim omil sanaladi. Yurtimizda futbol hakamlarini tayyorlash va mashq qildirishning zamonaviy usullarini tatbiq qilish jarayoni tashkil etilgan. Biroq, hakamlarning tayyorgarlik tamonlarini nazorat qilish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari yetarlicha amalga oshirilmagan. Bu holat shundan dalolat beradiki, mazkur soha bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan barcha ilmiy dissertatsiya ishlar sohani yanada rivojlantirish va uning ilmiy negizlarini shakllantirishga asos bo‘ladi.

Hakamlar tayyorlash sifatini oshirish muammosining dolzarbligi shundaki yuqori malakali hakamlarni tanlash va tayyorlash vositalari hamda usullarini ilmiy asoslab berish zarurligi bir qator futbol bo‘yicha yetakchi mutaxassislar tamonidan ilmiy tadqiqot

ishlarida takidlab o‘tilgan. [13;173-175-b].

Tadqiqot maqsadi professional futbol bilan shug'ullanuvchilar o'rtasida hakamlik ko'nikmalarini shakllantirish metodologiyasini takomillashtirish.

Tadqiqot vazifalari:

futbol bo'yicha hakamlarning professional tayyorgarligining asosiy tarkibiy qismlarini aniqlash.

futbol sport turi bo'yicha hakamlarning professional tayyorgarligini shakllantiradigan tashkiliy va pedagogik sharoitlarni aniqlash.

professional voqeyalikni modellashtirish asosida futbol hakamlarini tayyorlashni takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish;

professional voqelikni imitatsion modellashtirish asosida futbol hakamlarini tayyorlashni takomillashtirish metodikasi samaradorligini eksperimental baholash;

Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi. Yuqori malakali hakamlik sportchilarning mahoratini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Futbolchilarning samaradorligini oshirish faqat oddiy sport musobaqalari sharoitida mumkin bo'ladi, qachonki hakamlik sifati futbol musobaqasi qonunlariga zid bo‘lmaganda. Hakamlar bir tomondan, murabbiylar tomonidan musobaqalarga tayyorgarlik davrida boshlangan ishni davom ettirish, futbolchilarning sport mahorati cho‘qqilarini zabt etish borasidagi ishlarni xal qilish vazifasini bajaradi va bir vaqtning o‘zida murabbiylar va sportchilarning mahorat va bilimlarini malakali baholash vositasi bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. [13;173-175-b].

Ammo bizning fikrimizcha, hakamlik sohasida ham o'xshash tadqiqot va ilmiy-uslubiy manbaalar, tanlash va tarbiyalashning ilg'or usullar bo’yicha deyarli tadqiqotlar olib borilmagan. Ilmiy-uslubiy adabiyotlarda hakamlik masalalarining sust aks ettirilganligi, ushbu faoliyat turini tanlash va o'qitish usullarining yo'qligi hakamlar mahoratining ushbu nufuzli sport turining rivojlanish darajasidan sezilarli darajada orqada qolishiga olib keldi. Futbol bo'yicha bo'lib o'tgan jahon chempionatida jamoalar "juda kuchli raqobat" bilan birinchilik uchun kurash olib bordilar bu bugungi futbolning qanchalik tezlashib ketganligidan dalolat beradi.

A.A.Novikovning fikriga ko’ra, har qanday faoliyatda bo'lgani kabi, hakamlik qilishda ham ob'ektiv va sub'ektiv qiyinchiliklarni ajratish mumkin. Hakamlikning obyektiv qiyinchiliklarini birinchi navbatda musobaqa qoidalariga binoan vakillari hakamlar egallagan alohida holat sifatida ko'radi. Hakamlardan mutlaqo xolis va xatosiz qarorlar qabul qilishlari kutiladi, ammo har qanday faoliyatda bo‘lgani kabi hakamlikda ham xatolar bo‘lishi mumkinligini aytish adolatdan bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda, hakam qanchalik malakali bo'lmasin, undan barcha manfaatdor tomonlarning to'liq qoniqishini kutish mumkin emas [186; 25-28-b].

Zamonaviy yuqori malakali futbolchini tayyorlash yillik o‘quv-mashg‘ulot sikli tuzilmasida har xil turdagi mashg‘ulotlarni tashkil etish sifati bilan belgilanadi. Maxsus ilmiy-metodik adabiyotlarda malakali futbolchilar tayyorgarligining turli jihatlari: jismoniy, texnik, psixologik, funksional va nazariy tayyorgarligini oshirish masalalari atroflicha o‘rganilgan. Futbol sohasidagi yetakchi mutaxassislar tadqiqotlarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, hozirgi vaqtda yosh futbolchilarda jismoniy va texnik tayyorgarlikka alohida e’tibor qaratilmoqda. Aytish joizki, hozirda hakamlarni uzoq muddatli jarayonga ixtisoslashtirilgan tayyorlash masalalari yetarlicha rivojlanmagan. Shularni inobatga olgan holda aytish mumkinki hakamlarni tayyorlashda ularni yo‘naltirish va saralab olish asosiy omillardan bo‘lib hisoblanar ekan. Biroq hakamlarni saralab olishda e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihatlari, ularning iqtidori va imkoniyatlarini keng namoyon qilishga imkon beruvchi tomonlari – aspektlari bo‘yicha hali aniq bir to‘xtamga kelinmagan. Shu sababli ilmiy tadqiqotni o‘tkazishda biz mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan futbol ta’lim muassasalarining turli toifadagi mutaxassis va murabbiylaridan “Ko‘p yillik tayyorgarlik

Modellashtirish asosida futbolchi ishtirokchilarida hakamlik mahoratlarini shakllantirishni o‘rganishga oid anketa so‘rovnomasi

№	Savollar	
1.	Futbol hakamlarining tayyorgarlik tomonlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy manbalar bilan tanishmisiz?	
	Ha	22% (11 ta)
	Yo‘q	78% (39 ta)
2.	Futbol hakamlari uchun mashg‘ulot jarayonini tashkil etishning zamonaviy vosita va usullarini qo‘llash bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilganmi?	
	Ha	76% (38 ta)
	Yo‘q	24% (12 ta)
3.	Tayyorgarlik davrida hakamlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda qaysi jismoniy sifatlarga ustuvor axamiyat berish lozim?	
	kuch	24% (12 ta)
	chidamkorlik	46% (23 ta)
	tezlik	22% (11 ta)
	chaqqonlik	6% (3 ta)
	egiluvchanlik	2% (1 ta)
4.	Futbol sport turida hakamlarining tayyorgarlik jarayonida mashg‘ulotlarini qay ko‘rinishda tashkil etish samaraliroq?	
	Jamoaviy	52% (26 ta)
	individual	48% (24 ta)
5.	Modellashtirish asosida futbol hakamlarning tayyorgarligini oshirish samara beradi deb o‘ylaysizmi?	
	Ha	36% (18 ta)
	Yo‘q	64% (32 ta)
6.	Mahoratni shakillantirishga yo‘naltirilgan vositalar tayyorgarlik davrining qaysi bosqichida qo‘llash maqsadga muofiq?	
	Umum tayyorlov	40% (20 ta)
	Maxsus tayyorlov	34% (17 ta)
	Musobaqa oldi	26% (13 ta)
7.	Amaldagi usullardan qaysi biri maxoratni shakillantirishda aniq baholash imkonini beradi.?	
	O‘yin	8% (4 ta)
	Musoboqa	70% (35 ta)
	Interval	22% (11 ta)
8.	Hakamlar bilan mashg‘ulot olib borishda musoboqa vaziyatlarini modellashtirish usulini qo‘llash xo-latini qanday baxolaysiz?	
	Deyarli foydalanilmaydi	78% (39 ta)
	Qisman foydalaniladi.	22% (11 ta)
9.	Futbol hakamlarining maxoratini rivojlantirishga yo‘naltirilgan vositalarni qo‘llash o‘quv mashg‘ulot jarayonining necha foizini tashkil etish yetarli deb o‘ylaysizmi?	
	5%	22% (11 ta)
	10%	54% (27 ta)
	15%	12% (6 ta)
	20%	10% (6 ta)
10.	Hakamlarning organizm xususiyatlar asosida yuklamalarni ta’sir etish darajasiga ko‘ra tadbiq qilishni qanday baxolaysiz?	
	Zarur omil	66% (33 ta)
	Qisman kerak	22% (11 ta)
	Umuman zarurat yo‘q	12% (9 ta)

bosqichlarida hakamlarni saralab olishda eng muhim mezonlarini aniqlashga doir" mavzusidagi anketa so'rovnomasini o'tkazishga qaror qildik [6,8,9,12].

So'rovnomani tuzishda taniqli olimlar B.A.Ashmarin va F.A.Kerimovlarning ishlarida batafsil bayon etilgan anketa tuzishning metodik va metodologik tamoyillaridan foydalandik [7,13].

So'rovnoma 3 qismdan, ya'ni kirish, asosiy va pasport ma'lumotlari qismlaridan iborat bo'lib, so'rovnomaning bunday tuzilishi respondentlarning ma'lumot darajasi, sport malakasi, ish tajribasi, yosh jihati, toifasi va boshqalarni aniqlashga imkon berdi. Yuqorida qayd etilganlarning barchasi tadqiqot ma'lumotlarini turli pozisiyalardan tavsiflash va ko'rib chiqish imkoniyatini yaratdi. So'rovnomaga shakli, funksiyasi va mazmuni jihatidan bir-biridan farq qiluvchi 10 dona savollar (ochiq, yopiq, yarim yopiq, to'g'ridan-to'g'ri, javoblar majmuasiga ega bo'lgan savollar, nazorat savollar) kiritildi. So'rovnoma usulidan maksimal darajada foydalanish va uning samaradorligini oshirish uchun biz so'rovnomaning yarim standart shakllari (ochiq savollar va erkin shakldagi izohlar) dan ham foydalandik. So'rovnomaning ushbu shakli yordamida olingan ma'lumotlarning qiymati juda yuqori bo'lib, bunday usul yopiq savollarga javoblarni erkinroq talqin qilish va qiyosiy aloqalarni topishga imkon beradi. Erkin shakldagi izohlar respondentlarga so'rovnomadan tashqari muammolar bo'yicha qo'shimcha ravishda o'z fikr-mulohazalarini, xohish-istaklarini va takliflarini bildirishga imkon beradi. Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, so'rovnoma universal tadqiqot usuli bo'lib, ko'plab respondentlarni qamrab olgan holda bir vaqtning o'zida juda keng doiradagi masalalarni ko'rib chiqishga va ularni umumlashtirishga imkon beradi [3, 5, 7, 13, 14].

O'tkazilgan so'rovnoma futbol assotsiatsiyasi hamda hakamlar va inspektorlar tayyorlash markazi ko'magida tashkil etildi.

Tadqiqotni olib borishda yordamchi va bosh hamda nazoratchi hakamlar orasida so'rovnoma o'tkazildi. Anketa so'rovi mutaxassislarning o'quv mashg'ulot jarayonida hamda hakamlarnining chidamkorlik qobilyatini rivojlantirishda vositalari, maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish usullari, futbol hakamlarinig musobaqa faoliyatidagi maydon diapazonidagi ahamiyatiga oid fikrlarni umumlashtirishga qaratilgan edi.

Tadqiqot davomida 50 nafar hakamlar o'rtasida anketa so'rovi o'tkazildi. Ulardan 5 nafari "nazoratchi hakam", 20 nafari "bosh hakam" va 25 nafari "yordamchi hakam" toifadagilarda olib borildi.

Xulosa. Muhim musobaqalarda hakamlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari shuni ko'rsatadiki, umumiy farovonlikning yomonlashuvi ishning uchinchi soatida 14,8% da sodir bo'ladi. Respondentlarning 74,1% bir soatlik ishdan keyin asabiy-emotsional zo'riqish qayd etilgan, so'ralgan hakamlarning 18,5% ish kunining oxiriga kelib diqqatni jamlash yomonlashadi, 33,3% fikrlash va xotira darajasi pasayadi. Ko'pchilik hakamlar (74,1%) ishning 5-soatida ko'rish qobiliyatini yomonlashgan va orqa (37,0%), bo'yin (48,1%), pay (33,3%) va oyoq (18,5%)da charchoqni his qilishni boshdan kechirgan. Biz so'rovnomani o'tkazishda B.A.Ashmarin va F.A.Kerimovlar tomonidan tavsiya etilgan metodologik tamoyillaridan keng foydalandik. So'rovnomada ishtirok etgan mutaxassislarning bildirgan fikrlari turlichaligi, har bir savol bo'yicha olingan javoblar tahlili shuni bildiradiki, futbolchilarda hakamlik faoliyati bo'yicha tadqiqotlar olib borish zarurati mavjud. Shu bilan birga ularning bildirgan fikrlari bir qator qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyatini berdi. Masalan: hakamlik faoliyatida eng muhim omil sifatida va futbolchilarni tayyorlashning milliy modelini yaratishda musobaqa faoliyati samaradorligini, hakamlarning istiqbolini belgilash (yo'naltirish) ni tashkil etish ko'p yillik tayyorgarlikning o'quv-mashg'ulot bosqichida eng ma'qulligi, boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida antropometrik ko'rsatkichlar va texnik tayyorgar-

lik juda yuqori ahamiyatli ekanligi, oliy sport mahorati bosqichiga kelib hakamlarni saralab olishda eng yuqori ahamiyatga musobaqa faoliyati samaradorligini qo‘yish maqbulligi mutaxassislar tomonidan bildirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 4 noyabrdagi “Futbol milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4881-sonli Farmoni. http://Lex.uz.

2. Алабин В.Г. Как проводить спортивный отбор: метод. рекомендации / В.Г.Алабин. – Челябинск. 1987. -24 с.

3. Андреев, С.Н. Организационные проблемы подготовки спортивных резервов по футболу: автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.04 / Андреев Семен Николаевич. – Омск, 1988. – 20 с.

4. Антипов, А.В. Комплексная система отбора юных спортсменов на различных этапах подготовки в футбольных академиях /А.В.Антипов//Физическая культура: воспитание, образование, тренировка. – 2019. – № 5. – С. 20–21.

5. Ашмарин Б.А. Теория и методика педагогических исследований в физическом воспитании. – М.: Физкультура и спорт, 1978. – 224 с.

6. Губа В. П. Теория и практика спортивного отбора и ранней ориентации в виды спорта: монография - М.: Советский спорт, 2008. - 304 с.

7. Керимов Ф.А. Спортда илмий тадқиқотлар. //Дарслик. // Тошкент-2021. 380 б.

8. қутлимуратов И.Х. Чидамкорликни устувор ривожлантириш асосида футбол ҳакамларининг махсус жисмоний тайёргарлигини такомиллаштириш. монография. Чирчиқ. 2023.- с.

9. қутлимуратов И.Х футбол бўйича бош ҳакамларнинг тезкор чидамкорлигини ошириш усуллари самарадорлиги // Республикаписки журнал.-2021.-№4 .- С. 39-42.